

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025  
**FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**A.G.Sabirdinov**

O'zbek tarixiy romani: Oybek va Qodiriy ..... 6

**G.M.Oripova**

Aylor ijodkorlar she'riyatida daraxt obrazi tasviri ..... 9

**M.A.Jo'rayeva**

Munavvar Qori Abdurashidxonov ijodida safar janri ..... 13

**G.Muhammadjonova**

Hayot haqiqati, tarixiy haqiqat va badiiy idrok ..... 17

**И.А.Эшонкулов**

Tavsiysi mushahhasi tazkiiraҳoi Ҳашмати Бухорай ..... 21

**B.X.Murtazoyev, F.O.Hafizova**

“Bobotog”essesida peyzaj: flora tasvirida badiiyilik ..... 28

**И.А.Эшонкулов, З.П.Аҳмадҷонова**

Ситоиши хирад ва хирадгустарй дар “Шоҳнома”-и Ҳаким Фирдавсий ..... 34

**D.T.Musayeva**

Elizabet Gaskell ijodiga nazar ..... 39

**Н.Н.Қаюмов**

Muammo shinoxti sanъati tashxis dар поэтикан мумтози форсу тоҷик ..... 42

**Sh.T.Ibragimov**

“Babur the tiger” romani o'zbekcha tarjimasida metafora ifodasi ..... 47

**J.T.Ibragimov**

“Qutadg'u bilig” istioralarining poetik o'ziga xosliklari xususida chuqr mulohaza ..... 55

**A.A.Akbarov**

Vatanga muhabbatning lirik ifodasi ..... 61

## TILSHUNOSLIK

**Sh.M.Iskandarova**

Farg'ona davlat universiteti tilshunosligi: kecha va bugun ..... 66

**Г.М.Хошимов, М.Г.Хошимов, Н.А.Абдуллаева, Д.Ш.Назарова, Д.А.Ахмедова**

Актуальные проблемы терминологического аппарата и метаязыка исследования пословиц и поговорок ..... 71

**Z.V.Alimova**

Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida sifat turkumiga oid forsiy leksemalar xususida ..... 81

**A.B.Uralov**

Ayrim kengaygan shakllar taraqqiyoti hamda ularda nomutanosibliklar ..... 86

**Z.A.Davlataliyeva**

Ingliz tili darslarida talabalarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning mazmuni, shakli va vositalari ..... 90

**Н.А.Абдуллаева**

Сопоставительное изучение провербем, вербализующих концептуальную оппозицию «ум/глупость» в английском и русском языках ..... 95

**Н.А.Отахонова**

Проблемы общей теории и классификации лингвокультурой ..... 100

**B.B.G'apporov**

Ingliz gazeta sarlavhalarining o'ziga xos xususiyatlari hamda ularda fe'l komponentli kollokatsiyalarning qo'llanilishi ..... 106

**D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova**

Siddiq Mo'minning "Buyuk Temur avlodi" nomli she'rida pretsedent nom tahlili ..... 112

**N.Fidan**

Ellipsis in English text linguistics ..... 115

**M.O.Qulmamatova**

Ingliz va o'zbek tillaridagi “boylik/wealth va kambag'allik/poverty” konseptlarining o'xshashlik va farqli jihatlari ..... 120

**N.X.Boboqulova**

Ingliz va o'zbek tillarida head/bosh somatik komponentli maqollarning konseptual tahlili ..... 124



UO'K: 82-92:910.4(575.1)“19”

**MUNAVVAR QORI ABDURASHIDXONOV IJODIDA SAFAR JANRI****ЖАНР ПУТЕШЕСТВИЯ В ТВОРЧЕСТВЕ МУНАВВАРА КОРИ АБДУРАШИДХНОВА****THE TRAVEL GENRE IN THE WORKS OF MUNAVVAR KORI ABDURASHIDKHANOV**

**Jo'rayeva Manzura Ahronqulovna**   
Farg'ona davlat universiteti dotsenti

**Annotatsiya**

Maqolada Munavvar Qori ijodida safarnoma janrining o'rni, "Safar taassurotlari" haqida fikr yuritiladi. Asar janriy jihatdan tahlil etiladi. Janr xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslanadi. Shoiring Chimkent shahridagi safari tasviri tahlilga tortiladi, janr xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslanadi.

**Аннотация**

В статье рассматривается роль жанра *травелога* «Путевые впечатления» в творчестве Мунаввара Кори. Произведение анализируется с точки зрения жанра. Жанровые характеристики научно обоснованы. Анализируется описание поэтом своей поездки в город Шымкент, научно обосновываются жанровые особенности.

**Abstract**

The article explores the role of the travelogue genre, particularly the work *Travel Impressions*, in the literary output of Munavvar Kori Abdurashidkhanov. The work is analyzed from a genre perspective, with a focus on the specific characteristics of the travelogue as a literary form. The poet's journey to the city of Shymkent is examined in detail, and the genre-specific elements of the text are supported by scholarly analysis.

**Kalit so'zlar:** safarnoma janri, safar taassurotlar, jadid adabiyotida safar janrining turlari

**Ключевые слова:** жанр *травелога*, путевые впечатления, виды жанра путешествия в современной литературе

**Key words:** travelogue genre, travel impressions, types of travel writing in modern literature.

**KIRISH**

XX asr ijodkorlari badiiy adabiyotning turli janrlarida ijod qilib etuk badiiy namunalarni yaratdilar. O'zbek jadid adabiyotida safarnoma janrining shakllanishi va rivojlanishida mumtoz adabiyotining o'rni beqiyos. Har bir safarnoma zamon talabi va muallifning dunyoqarashiyu estetik didiga muvofiq bir markazlashtirilgan maqsadga qaratilgan. Bir yozuvchi ajoyibu g'aroyib narsaga e'tibor bersa, boshqasi mакtabu maorifga, umuman madaniyatga, uchinchisi ijtimoiy tizim va uni muvofiqligiga, xalqning hayotiga, yashash tarziga diqqatini qaratgan.

**ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA**

Jadidlar diniy bag'rikenglikni targ'ib qila olgan va unga amal qilgan. Ayniqsa u bir millatning ikkinchi bir millat tomonidan kamsitilishini va millatlararo nikohga qarshi bo'lganlarga keng targ'ibot ishlarini olib borgan va "har bir musulmon kitobiy xalqlar bilan turmush qurishga muxtordir" "[1], deb ta'kidlagan.

Jadidlarning ijtimoiy qarashlarida oila va oila munosabatlari masalalari keng o'rin oldi. Jadidlarning fikricha, oila asosini to'g'ri qurmasdan va yosh avlodni to'laqonli to'g'ri yo'lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas va oxir oqibatda millat taqdiri uning oilasining holatiga bog'liq. Bu g'oyalalar Fitratning asarida shunday ifodalananadi: "Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa, shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi" [2,4-bet]. "Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzathurmat topishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi,

o'zgalarga tobe, qil va asir bo'lishi bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq [3,336-bet].

Jadid namoyandalari o'z xalqini ma'rifatli, ilmli bo'lishi bilan birga o'z tili va e'tiqodiga ega bo'lishi kerakligiga ham e'tibor qaratganlar. Ular xalq dunyoqarashini o'zgartirish uchun nima lozim bo'lsa, shunga bor diqqatini qaratganlar. Jadidlar safarga chiqish orqali boshqa xalqlar yashash sharoitlari bilan tanishganlar, mакtab, maorif masalasini yaxshiroq o'rganishga intilib, xalqni ma'rifatga chorlaganlar.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Safar janrining ko'rinishi va shakllari turlicha bo'ladi. Badiiylikka yo'g'rilgan safar, publisistik yo'nalishda yozilgan safar, kundalikka yozib borilgan safar, xotiraga yozib borilgan safar, xatlar asosida yozilgan safar, shakli ko'rinishi har xil, lekin maqsad, vazifa bir xil. Munavvar Qori Abdurashidxonov birinchi safar taassurotiga "Kichkina safar" deb nom beradi. Bu safarnoma publisistik yo'nalishda yozilgan bo'lib, bir qarashda muallif taassurotlariga o'xshaydi. Biroq safarning o'z maqsadi bor, shu maqsadning bayon qilish uslubi publisistikdir. Asardagi peyzaj tasviri o'quvchini o'ziga ohangrabodek tortadi. Go'yoki safarnoma emas, aksincha badiiy asar o'qiyotgandek his etadi. "Fasli robi'ada janob Haqning nazar marhamatidin olami nabotot amalg'a kirib, erdin bosh ko'tarib, hamani zumroso aylag'an'i kabi olami insona ham farahbaxsh va najot bo'lg'anidin o'tgan aprelning 28-sida bir rafiqi muvofiq tab'a mullo Muhammad Obidhoji o'g'llari ila barobar asbi suvora bo'lishub, Chimkand shahrig'a azmi safar qilduk. Yo'llarda havoning e'tidoli osmonda bahorning parcha-parcha bulutlari orasidin jilva qilub turgon mahbublar yuzidek oftobning muassir harorati, bir tarafdin, yoqimlik nasim shamollar va sahroni ko'mko'k etub turg'an rango-rang chechaklik giyohlari yo'lni iki tarafida belbog' barobarida ko'kargan bug'doy, arpalarini poyasi va donasi bahor nasimidin qimirlab turgonlari ko'zimizg'a jilvalik mahbublardek ko'runub, jonimiz rohatda ketar erduk.

Gohi istirohat uchun xushhavo ko'k maysalarg'a otlarimizdin tushub, yonboshlashib, xurjunlarimizdin kitoblarimizni olub, qiziq hikoyalardin mutolaa qilishgonimizda go'yoki o'shal sahroda makkiona kishilar ila suhbat qilishgondekk ko'runub, dilimiz chog', ko'ngullarimizda g'am kudurati qolmas erdi"[4]

Kuzatishlarimizdan shu ayon bo'ldiki, jadid adabiyotidagi safarnoma yozilishida mualliflarning har doim hamrohi bo'lgan (ta'kid bizniki M.J. Cho'lpion, Fitrat, Avloniy, Behbudiy).(Shu o'rinda Mahmudxo'ja Behbudiy "Qasdi safar" asarida yolg'izlikdan zerikib, vagon aylanganini, uxlasa yomon tush ko'rishini alohida ta'kidlab o'tadi.) Demak jadidlardagi safar taassurotlari yozilishiga guvohi bo'lgan shaxslar bor. Munavvar Qori ham Muhammad Obidhoji o'g'li bilan safarga chiqqanini alohida ta'kidlaydi. Safarga qanday maqsadda ketayotganini tasvirlamasdan, asosiy fikrini tabiat tasviri bayoni bilan boshlagan. Bu ham ijodkorning o'ziga xos uslubidan dalolat beradi. Chimkent shahriga borib, u erdag'i tabiat tasviri va o'zini kayfiyatini tasvirlashi ham muhimdek ko'rinati. Safarga chiqqan jadidlarning kayfiyati ko'tarinki bo'lmagan (M.J.). Biroq bu kichik safar tasvirida muallif kayfiyati ko'tarinki holda aks etgan. Biroq ovuldagi qozoq bilan suhbat tasvirida olimning hayrati yanada oshadi. Tog'ning nomini so'rashi va unga bog'liq bo'lgan xalq og'zaki ijodidagi rivoyatga ishonib, bo'rttirib gapirishi olim tasavvurini o'zgartiradi.O'zi birorta adabiyotda o'qimagan, og'izdan og'izga o'tib kelgan xalq rivoyatiga ishonib qolgan oddiy odamlarning tushunchasi unga kuchli og'riqdek ta'sir etadi.shu paytda ong ostida qanday fikrlar o'tdi, u o'zigagina ayon. Biroq bu joydag'i aholi ham xuddi o'z yurtidagi odamlar kabi ta'limda yiroqligini o'ylagan bo'lsa, ajabmas. Ana shu joyda safarning aniq maqsadi ko'zga ko'rinati. Xalqning ilmsizligi, o'quvsizligi haqida gapiradi. "Qazoqni jinkashalarig'a olorni o'qutmoqig'a tavsiya qilub, farzandlaringizni o'zlaringizga o'xshash vahshiy va johil qilib qo'y mang, shaharg'a yuborub ikki dunyo saodati bo'lg'an ilmi ta'l'im oldiring. Musulmonchilikka ilm kerak, xususan, sizlardek sahroyi xalqlardin bir tolibi ilm chiqsa, aksarlariningizni rohi rostg'a solur, degan so'zlarimg'a minnatdorlik birlan qabul qilib, otlarimizg'a mindirib, yo'lg'a soldi"[4,2-bet].

Safarning maqsadi ilm izlash, ilmli ziyoli insonlarni ko'paytirish, xalqning ma'rifatli bo'lishi uchun tinim bilmagan Munavvar qoridek shaxs, qozoq millatida ham ilmsiz odamlar ko'pligidan xafa bo'ladi. Yo'lda xatto hamrohi bilan ham gaplashmaydi, hech qayerda to'xtamasdan to'rt yarim soatda Chimkentga etib boradi. Tujjor Mulla Muhammadjon Mayliboyev xonadoniga mehmon bo'lib

## ADABIYOTSHUNOSLIK

borishi ham aniq maqsad asosida bo'lgan. Chunki olimning asosiy maqsadi oddiy xalqni ilmlli va ma'rifatli bo'lishi uchun chora izlash, maktablarni ko'paytirish bo'lgan.

O'shal yurgoncha ondin erg'a inmay kechqurun to'rt yarim soatda Chimkand shahrig'a vord bo'lub, Chimkand mo'tabaronlaridin tujor Mulla Muhammad jon Mayliboyev xonalarig'a tushduk. Bizlardin muqaddam toshkandlik Abdumalikboyevlar, Hoji Rizqtillo Toshkandi, yana Nu'mon Abdurahmonov, namangonlik mehmonlar bor ekan. Alar birlon tonishib, ul kecha anda istirohat qilduk. Ertasi kun qo'shxona sohibi Mulla Muhammadjon kolaska arobalarini qo'shdirib, Chimkanddin ikki-uch chaqirim masofat nari To'rtko'l degan mavze'ga Siddiqboy ismlik bir oshnalarini taklificha olib ketdi. Bizdin ilgariroq ul joyg'a Chimkand qozisi Azimxon qozi Sulton Ahmadxon marhum o'g'ullari ham mukallif bo'lub borub turgon ekanlar. Qozi janoblari birla ko'rishub o'shal kecha o'tovda suhbatlashub yotduk. Qozi janoblari yosh, o'rtafikrlik, fuqarolarig'a maqbul bir zot bo'lub, o'n yildin beri qozilik mansabig'a mansub ekan. Syezd majlislarida sadrnishinlik masnadida ham bo'lak atrof qozilari shul kishini ma'qul ko'rur, deb so'zlashdilar. Suhbatlari shirinlikdin ko'zlarimizdin uyqu qochib ketib, sahar vaqtig'a qadar har tarafdin qiziq-qiziq so'zlarni so'zlashib o'lturdik. Ertasi choy vaqtindagi musohabada Chimkand maktablaridin istifso qilqonimda "Chimkanddag'i mavjud maktablar usuli qadimdadur, yaqin fursatdin beri bir muntazam maktab ochmoq harakotida bo'lub, Toshkanddin bir muqtadirroq usuli jadida muallimini olub kelgon erdi. Alhol hukumat ijozat bergenicha yo'qdur. Shunga ijozat olmoq harakatidadurmiz, inshoollo, ijozat berur degan umidimiz bordur", – dedilar [4,3-bet].

Munavvar Qorini maqsadi aniq bo'lgan. Sayohatga chiqqan sayyoj bu jihatlarga e'tibor bermaydi. Lekin safarga maxsus topshiriq bilan chiqqan sayyoj safarni ikir-chikirlarigacha bayon qiladi. Bu esa safar janrining muhim xususiyatidir. Ijtimoiy hayot, urf-odatlar, e'tiqodlar va qadriyatlar, geografik tavsif, yo'l xotiralari sifatida ham ahamiyatlidir. Muallifning shaxsiy kuzatishlari, kechinmalari birinchi o'ringa chiqadi va asarning ma'lum ma'noda badiyilagini ta'minlaydi.

Kechqurun fasli asrda dala atroflarini gashtu guzor qilib yurgonimizda o'shal erlik bir kishining joyidin zovur kovlagonda bir sarjin miqdori chuqurlikdin paxta xisht chiqq'an ekan. Oni ko'rsatdilar. Ul paxta xisht chiqq'an joy vasi' bir erni atrofidag'i baland mozor tegida bo'lub, yaqin joylarida ushbu xil xisht parchalari va xarsang toshlarni izlari ham bordur. Yer sohibi o'shal joyni kavlab, ikki ming adadcha xisht olgandan keyin hukumat ma'murlari voqif bo'lub qolub, oni man'i qilubdurlar. Ammo xishtlari bir xilda bo'lmay katta-kichik, har holda o'zimizni rasmiy xisht barobaridagilari ham ko'pdur. Holo mazkur joy ochuq turub, taxtlangan xishtlari va xarsanglari ko'rinub turubdur. Yana mazkur erg'a yaqin joylardin qadimi eski pul chaqalar chiqib, bir donasini kaminag'a taslim qilg'anlarida ko'rdimki, bir tarafiq'a xatti ko'fi birlon kalimai tayyiba yozilib, bir tarafidagi xatni nima ekanlug'i chandon ma'lum bo'lmadi. Chaqani kattaligi bir mirilikdin ko'ra kichikroq, yufqa nafis bo'lub bir chetida teshugi ham bordur. Bul eski asarlardin qadim muslimon xonlari zamonida shul joyda bir zo'r imorat va yo boshqa bir muhim nimarsa borlig'i zohir bo'ladir. Mazkur To'rtko'l mavze'i va ondin yuqoriroq Oltuntepa degon mavzelardin Chimkand otasharoba yo'li tushub, Ars istansasidin Chimkandg'a qarab ishlamoqda ekan.

Tasvir va tafsif etilgan erlar, shahar va qishloqlar, xalqlar o'tmishi, nihoyatda xilma-xil ma'lumotlarning ko'pligi, geografiya, etnografiya, madaniyat, iqtisodiyot, toponimika, antropologiya, bayonning soddaligi, haqqoniyligi va hujjatlarga asoslanganligi jihatidan "Safar taassurotlari" o'zbek adabiyotida safarnoma janrining shakllanishida muhim manbaa bo'lib xizmat qiladi.

Ark ustida muslimon xonlaridin Rusiyalarg'a o'lja tushgon 6-7 g'onburak to'plarini qator qilib, og'zini shahar tarafiq'a qarotib qo'yilg'an ekan. Past tarafdin oni manorasi go'yoki ul joy bir zo'r istehkomdek ko'runub, daf'atan yangi kelgon kishi uni ko'zig'a bir g'alati taajjublik joy ko'rur edi. Arkning xushhavo va mufarrahligidin bir zo'r ul joyg'a chiqub, qimiz ichib kasbi havo qilishni o'zimizg'a lozimul ado qilib qo'yduk.

Muslimon xon-beklari zamonida gunahkorlarni qamaydurgon zindon o'rni va past tarafq'a oyog' qo'lini band qilib, tashlaydurgon baland tepalar arkda o'lturgon zamonimizda ko'zga tushub qolsa, jon vahmidin badanimiz larzag'a kelib ul bechora benom-nishon zindonda qolgon va oyog' qo'li band bo'lub, o'lgonlar yodimizg'a kelgonda bular orasida qancha gunohsizlar ham o'lub ketgondur, deb ko'nglimizg'a mayuslik kelib, xursand dillarimiz xafalikka mubaddal bo'lur erdi. [4,4-bet].

Munavvar Qori safar taassurotlarini yozishda xalqning yashash tarzi, undagi er osti va er usti boyliklari, xalqlarning urf-odatlariga e'tibor berish bilan birga xalqning ma'rifati, ilmi haqida bir qancha asosli fikrlarni aytib o'tgan. Safarnoma reallikka asoslanganligi uchun ham to'qima voqeа, yoki qo'shib yozish bo'lmaydi. Shuning uchun ham bu safarnomada uchrashgan shaxslari ham aniq keltirilgan. Ayrim holda insonlarning tashqi qiyofalari ham tasvirlangan. Portret yaratish, ko'rgan insonlarining xarakteriga to'xtalish, tabiat manzarasini tasvirlash kabilalar adib ijodiga xos bo'lgan, ayniqsa safarnomalarida yaqqol namoyon bo'ladigan o'ziga xos uslubdir. "Chimkandda madfun Mavlono Muhammad Darvish mozorpar anvorlarig'a ziyorat uchun borub, shayxlarig'a nazri niyozlarimizni berib qaytduk. Ertasi har ro'z rasmiy taomilmizcha Chimkandda savdo birlan turg'uvchi Abdulmutallibboy bog'iga go'sht, qimiz olishub chiqub, anjuman qilib o'Iturgonimizda muallim Abdusami' qori ilan barobar boyning nuri chashmalari bizlar o'Iturgon shiypong'a kirib keldilar" [4,5-bet]. Safarnomada tasvirning o'ziga xos tarzda ko'rsatilishi, ayniqsa urf-odat va qadriyatlarga e'tibor berish orqali ahamiyatlidir.

### XULOSA

Adibning Chimkent shahriga qilgan safari qisqa yozilgan bo'lsa-da, biroq o'sha safar voqealarini to'liq qamrab olgan. Bu asar boshqa asarlardan farqli jihatni maktub, kundalik tarzida yozilmagani, kunma-kun bayon qilinmagani bilan ajralib turadi. Bu safarnoma "Safar taassurotlari" nomi bilan atalishi, uni gazetaga ya'ni "Turkiston viloyatining gazeti", 1914 yil 18 may 39-sonida nashrdan chiqishini hisobga olsak, safarnomani o'sha davr uchun yana bir ko'rinishini isbotidir.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qosimov S. Behbudiy va jadidchilik. // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 1990, 26 yanvar.
2. Fitrat Abdurauf. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. –T.: "Ma'naviyat", 2000.-B.4.
3. Fitrat Abdurauf. Tanlangan asarlar: J. IV. Darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar. T.: "Ma'naviyat", 2006. - B 336
4. Munavvar Qori "Safar taassurotlari". "Turkiston viloyatining gazeti", 1914 yil 18 may 39-sonida.